O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

Yanvar-aprel oylari davomida 2022-yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
52

Qo'mitaning elektron pochtasi orqali kelib tushgan murojaatlar
207



O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
2

To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
85

Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi kelib tushgan og'zaki murojaatlar
54

Davlat statistika qo'mitasiga 2022-yilning yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 400 nafar murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 52 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 2 ta O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi orqali, 207 ta Qo'mitaning elektron pochta orqali, 85 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 54 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.

Murojaatlar:
(mazmun-mohiyati bo`yicha)

2022-yil yanvar-aprel oylari holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko’ra:

66 tasi (16,5 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko’rsatkichlariga oid ma’lumotlarni taqdim etish yuzasidan

195 tasi (48,8 %) korxona va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan

12 tasi (3,0 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to’g’risida arxiv ma’lumotlarini olish masalalari yuzasidan

45 tasi (11,2 %) statistik hisobotlarni to’ldirish va taqdim etish bo’yicha tushuntirish yuzasidan

57 tasi (14,2 %) o’z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan

25 tasi (6,3 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan

Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2022-yil yanvar-aprel oylari holatiga

Jami: 400





Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 400 ta murojaatlarning 300 tasi ijobiy hal etildi, 72 tasi tushuntirildi, 28 tasi ko`rib chiqilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 29,0 % (116 ta) jismoniy shaxslar va 71,0 % (284 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Hududlar bo’yicha taqqoslama tahlil:

2022-yil yanvar-aprel oylari holatiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar	2021-yilda kelib tushgan murojaatlar soni	2022-yilda kelib tushgan murojaatlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4	39
Andijon viloyati	54	12
Buxoro viloyati	54	12
Jizzax viloyati	25	18
Qashqadaryo viloyati	45	14
Navoiy violoyati	28	13
Namangan viloyati	33	13
Samarqand viloyati	53	42
Sirdaryo viloyati	41	18
Surxondaryo viloyati	55	28
Toshkent viloyati	74	17
Farg'ona viloyati	40	14
Xorazm viloyati	21	8
Toshkent shahar	366	149
Boshqa davlatdan	2	3

Davlat statistika qo’mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 149 ta (o’tgan yilning shu davrida 366 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatidan 42 ta, Qoraqalpog’iston Respublikasidan 39 ta, Surxondaryo viloyatidan 28 ta, Jizzax viloyatidan 18 ta, Sirdaryo viloyatidan 18 ta, Toshkent viloyatidan 17 ta, Qashqadaryo viloyatidan 14 ta, Farg’ona viloyatidan 14 ta, Navoiy viloyatidan 13 ta, Namangan viloyatidan 13 ta, Andijon viloyatidan 12 ta, Buxoro viloyatidan 12 ta, Xorazm viloyatidan 8 ta va boshqa davlatdan 3 ta murojaatlar kelib tushgan.

Eslatib o`tamiz:

O`z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog`liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma`lumot olishni xohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaat qiling:

"Ishonch telefon"lari: (71) 202-81-80

Davlat statistika qo`mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 202-81-81

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.

Davlat statistika qo`mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi: (71) 202-81-77

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

Pochta manzili: info@stat.uz